

**O'ZBEKISTON MAJORITAR SAYLOV TIZIMIDAN ARALASH TIZIMGA
O'TISH SABABLARI****Oxunov Abdulla Abduvaxob o'g'li***Toshkent davlat yuridik universiteti ommaviy huquq fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi saylov tizimidagi o'zgarishlar, xususan, majoritar saylov tizimidan aralash saylov tizimiga o'tish sabablari tahlil qilinadi. Majoritar va aralash saylov tizimi qanday ishlashi va ularning avfzalliklari va kamchiliklari haqida so'z boradi, hamda bu tizimlarning dunyo davlatlarida qanday ishlayotganligi haqida ham qiyosiy tahlillar olib boriladi. Bundan tashqari, bu tizimlarning mamlakat siyosiy tizimiga ta'siri ko'rib chiqiladi, hamda bu o'zgarishlar orqali qanday natijalarga olib kelganligi haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Saylov, saylov tizimi, davlat boshqaruvi, majoritar saylov tizimi, aralash saylov tizimi, proporsional saylov tizimi, ovoz berish, saylovchi, saylanuvchi, saylash huquqi, saylanish huquqi, partiyalar, shaffoflik, parlament.*

KIRISH

Har bir davlatning saylov tizimi uning siyosiy tizimi va demokratik tamoyillariga mos ravishda shakllanadi. O'zbekiston mustaqillik yillarida majoritar saylov tizimidan foydalangan bo'lsa, 2024-yildan boshlab aralash saylov tizimiga o'tishga qaror qildi. Ushbu maqolada bu o'zgarishning asosiy sabablari va uning mamlakat siyosiy tizimiga ta'siri muhokama qilinadi. Birinchi navbatda, mamlakatda saylov qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida gapirsak, bunga bir necha sabablarni keltirishimiz mumkin: 1) Saylov xalq hokimiyatchiligining muhim belgisi, ya'ni fuqarolar davlat hokimiyatiga davriylik asosida o'z munosabatini bildirishining alohida vositasidir, 2) Saylovlar orqali davlat hokimiyatining oliy organlari va mahalliy vakillik organlari shakllantiriladi, 3) Siyosiy kuchlarning qonuniy yo'l bilan shakllanishiga va sog'lom raqobat muhitining vujudga kelishiga xizmat qiladi, bu esa davlat boshqaruvida turli fikr va manfaatlarining inobatga olinishi, siyosiy tizimning barqarorligi va legitimligini ta'minlaydi.

Keling endi asosiy mavzuga qaytsak, avvalo majoritar saylov tizimining xususiyatlari hamda uning O'zbekistondagi tajribasi haqida tahlil qilamiz. "Majoritar" so'zi fransuzcha "ko'pchilik" so'zidan olingan. Majoritar tizim dunyo davlatlari saylov tizimida juda keng tarqalgan tizim hisoblanadi. Bunday saylovda vakillik organlariga deputat bo'lib partiya a'zolari emas, partiya tomonidan ko'rsatilgan, so'zga chechan, notiq, xarizmatik, saylovchilarni o'z dasturiga ishontira oladigan kishilar saylanadi. Bu tizimda okruglarda nomzodlar asosan partiya nomidan qatnashadi, lekin yakka asosda ovoz oladi, ovoz partiya uchun emas, shaxsan nomzodga beriladi. Bu bir necha afzalliklarga ega, ya'ni oddiylik, barqarorlik va hududiy vakillik. Majoritar tizim saylovchilar uchun nisbatan tushunarli. U kuchli va barqaror hukumatlarni yaratishga moyil. Uning yana bir yaxshi jihati shundaki, har bir vakil o'z saylovchilarining ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Shu o'rinda yana bir muhim masalani aniqlashtirib ketadigan bo'lsak, nomzod ovozlarning ko'pchiligiga ega bo'lmasdan saylangan bo'lishi mumkin degan xulosalar kelib chiqishi mumkin. Haqiqatan ham, g'alaba qozonish uchun zarur bo'lgan ovoz foizi juda past bo'lishi mumkin, bu masala yechim qilib

shunday yo'l tutilgan, ya'ni bu nomzodlar soni va ovozlarning nomzodlar o'rtasida taqsimlanishiga qarab farq qiladi. Hamda nomzodning 50 foizdan kam ovoz bilan g'alaba qozonishini oldini olish uchun, bu tizimda g'olib bo'lish uchun "absolyut ko'pchilik" ovozini olish kerak. Bu nima degani? Ya'ni ovozlarning 50 foizi va yana bitta ovoz olish kerak, shu holatda nomzod "absolyut ko'pchilik" ovozini oladi va g'olib bo'ladi. Bu tizimdan hozirgi kunda ko'plab davlatlarda joriy etilgan: AQSH, Buyuk Britaniya, Meksika, Hindiston va albatta yurtimiz ham 2023-yilga qadar ushbu tizimdan keng foydalanib kelayotgan edi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis saylov to'g'risidagi qonunlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis Qonunchilik palatasining barcha deputatlari majoritar saylov tizimi orqali saylangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, 1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan prezident saylovi hamda 1994-yil o'tkazilgan parlament saylovlaridan boshlab majoritar saylov tizimi qo'llanila boshlandi. Avvalgi saylov tizimiga ko'ra Qonunchilik palatasining 150 nafar deputatlari majoritar saylov tizimi asosida hududlardagi saylov okruglaridan saylangan. Ya'ni, saylovchilar byulletenda ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarga ovoz bergan. Yuqorida keltirilganidek, bu tizim bir mandatli saylov okruglari asosida tashkil etilgan bo'lib, unda har bir hududdan eng ko'p ovoz olgan nomzod g'olib deb topilgan. Yurtimizda bu tizim shunday ishlaganki: Saylov okruglari bo'linib har bir okrugdan yagona nomzod saylagan, nomzodlar siyosiy partiyalar orqali qatnashgan, g'oliblik uchun nomzod 50%+1 ovoz to'plashi talab etilgan. Asosiy jihatlari shundaki saylovchilar kimni saylayotganini bilib turishgan va parlamentda siyosiy partiyalar emas, balki individual nomzodlarning o'zni muhimroq bo'lgan. Uning yana bir yaxshi jihatlari keltirib o'tadigan bo'lsak: saylovchilar o'z hududidan bevosita ovoz bera olgan, hududiy manfaatlarni ilgari surish imkoniyati bo'lgan hamda eng asosiylaridan biri mustaqil nomzodlarning parlamentga kirish imkoniyati mavjud bo'lgan. Bu tizim aralash yoki noan'anaviy tizimlardan ko'ra saylovchilarga juda tushunarli hisoblanib, uning qo'llanilishi saylovchilarga ikki yirik partiyadan birini tanlash imkonini beradi. Bunda kichik partiyalar yirik partiyalardan birining tutgan pozitsiyasida tutgan o'rniga halaqit qiladi. Uning yetarlicha avfzalliklariga qaramay yurtimizda uning ba'zi bir kamchiliklari ham ko'zga tashlandi. Birinchidan, eng salbiy tomonlaridan biri bu ko'plab saylovchilar ovozi kuyib ketadi, chunki saylanmagan nomzodga berilgan ovozlarning 49 % gacha bo'lishi mumkin, lekin u shuncha ovoz yig'sa ham saylanmaydi va u to'plagan ovozlar hech qanday hamiyatga ega bo'lmay qoladi. Bundan tashqari, saylovda asosiy e'tibor nomzodlarga qaratilgani bois, ushbu tizim ko'ppartiyaviylikning rivojlanishiga yetarlicha sharoit yaratmaydi. Ikkinchidan, bu orqali siyosiy partiyalar cheklanib qolgan, chunki deputatlar asosan hududiy manfaatlarni himoya qilgan. Saylov natijalari siyosiy kuch foydasiga shakllangan, chunki hokimiyatdagi partiyalar ko'proq deputatlarga ega bo'lgan. Uchinchidan esa, birinchi turda ko'rsatilgan nomzodlarning hech biri saylanmasligi ehtimolining mavjudligidir. Shu holatda takroriy ovoz berish o'tkaziladi, natijada uni moliyaviy ta'minlash zarurati paydo bo'ladi. Moliyaviy ta'minot masalasi, shuningdek, vakillik organidagi bo'shab qolgan deputatlik o'rnini to'ldirishda ham yuzaga keladi.

Endi aralash saylov tizimiga keladigan bo'lsak, bu saylov tizimi xorijiy mamlakatlarda juda keng tarqalgan hisoblanadi. Davlatlarda oliy va vakillik organlarining bittasi majoritar tizim orqali, bittasi proporsional tizim orqali tashkil etiladi yoki bitta vakillik organi tashkil

etishda ikkala tizimdan foydalaniladi. Yuqoridagilarga asoslanib aytadigan bo'lsak, aralash saylov tizimi bu - majoritar va proporsional saylov tizimlarining uyg'unlashuvidan hosil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. 2023-yil 18-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan konstitutsiyaviy qonun bilan bir qator qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga Qonunchilik palatasi saylovini aralash (majoritar va professional) saylov tizimi asosida o'tkazish tartibi belgilandi. Shunda saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglariga ajratildi. Qonunchilik palatasining 75 nafar deputatlari majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi asosida, ya'ni siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanishi belgilandi. Nima uchun yurtimiz bunday saylov tizimiga o'tdi? Yuqorida majoritar saylov tizimining ba'zi kamchiliklari haqida to'xtalib o'tdik. Aralash saylov tizimi esa majoritar va proporsional saylov tizimlaridagi ushbu kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga ularning afzal jihatlari o'zida namoyon etadi. Bu afzalliklarni ba'zilarini keltirib o'tadigan bo'lsak:

Birinchidan: Ko'ppartiyaviylik tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi, ya'ni majoritar saylov tizimi asosida muvaffaqiyat qozona olmagan partiyalarga o'zlari olgan ovozlarga mutanosib ravishda deputatlik o'rinlarini olishga imkon yaratiladi. Agar biror partiya saylovda g'olib bo'lmagan taqdirda bu partiyadan deputatlar saylanadi. Chunki ular to'plagan ovozlarga deputatlik o'rinlari beriladi.

Ikkinchidan: bo'shab qolgan deputatlik o'rinlarini tezkor to'ldirish imkoniyatini berib, saylov xarajatlari kamayadi hamda davlat byudjet mablag'lari tejaladi.

Uchinchidan shuni ayta olamizki, bu saylov tizimida deputatlarning 75 nafari proporsional saylov tizimi orqali saylangani tufayli, qonunchilik palatasi deputatlarining siyosiy partiyalar bilan aloqasi yaxshilanadi. Chunki deputatlar orasida barcha partiyalardan nomzodlar bo'ladi.

Bundan tashqari, aralash saylov tizimi dunyo mamlakatlarida tobora ommaviylashib bormoqda. Bu tizimdan hozirgi kunda 40 ga yaqin davlatlar foydalanib kelmoqda. Bu davlatlardan ba'zilarini misol tariqasida ko'rib chiqamiz. Avstraliyada parlamentning bir palatasi majoritar tizim, ikkinchisi esa proporsional tizim asosida saylanadi. Misrda esa aralash tizim partiyaviy ro'yxat bo'yicha ovoz berish va yakka tartibdagi saylovlarning kombinatsiyasidan iborat, ya'ni har bir saylov okrugidan bittadan individual nomzod saylanadi, qolgan o'rinlar esa partiya ro'yxatdagilari o'rtasida taqsimlanadi.

O'zbekistonning bu saylov tizimiga o'tishining eng muhim sabablari shularki:

1. Siyosiy plyuralizmni oshirish, ya'ni ko'ppartiyaviylikni rivojlantirish. Avvalgi tizimga qarasa, faqat eng ko'p ovoz olgan nomzod yutardi, lekin bu kichik partiyalarga imkon bermasdi. Aralash tizim esa bu muammoni hal etdi va kichik yoki yangi partiyalarga ham parlamentga kirishga imkon yaratdi.

2. Fuqarolarni faolligini oshirish. Aralash tizimda saylovchilar bir tomondan o'z hududidan chiqayotgan nomzodga ovoz beradi, ikkinchi tomondan esa ma'lum bir siyosiy partiyaning tanlab, uning g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

3. Siyosiy muvozanatni ta'minlash, ya'ni aralash tizim parlamentda har xil partiyaga joy ajratadi va bitta partiyaning mutlaq hukmron bo'lishini oldini oladi. Turli fikrlar, qarashlar va

manfaatlar muhokama qilinadi. Sodda qilib aytganda: Parlamentda har xil partiyalar bo'ladi, bu esa muvozanatni saqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida 2024-yil 27-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqorg'I Kengesi, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent Shahar, tuman va shahar kengashlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Bu saylov yangi aralash saylov tizimida bo'lib o'tdi. "Davlatimiz tarixida birinchi marotaba aralash saylov tizimi asosida o'tgan parlament saylovlari xalqaro hamjamiyat tomonidan ham katta qiziqish bilan qarshi olindi" deb xabar bergan edi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov Komissiyasi.

Saylov natijalariga ko'ra, yagona saylov okrugi bo'yicha Qonunchilik palatasiga saylovida deputatlik o'rinlari siyosiy partiyalar orasida quyidagicha taqsimlandi:

O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi - 26 deputatlik o'rni;

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi - 14 ta deputatlik o'rni;

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi - 13 ta deputatlik o'rni;

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi - 12 ta deputatlik o'rni;

O'zbekiston Ekologik partiyasi - 10 ta deputatlik o'rni;

Xulosa qilib qilib aytadigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi saylov tizimidagi islohoti siyosiy tizimning demokratlashtirishga, ya'ni mamlakat siyosiy hayotini yanada ochiq, adolatli, va demokratik qilishga qaratilgan.

Buo'zgarishlar orqali fuqarolar o'z ovozi bilan siyosiy qarorlar qabul qilinishiga ko'proq ta'sir ko'rsata oladi. Chunki endi odamlar nafaqat bir nomzodga, balki o'z qarashlariga yaqin partiyaga ham ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Bundan tashqari, yangi aralash tizim tufayli siyosiy partiyalar raqobatbardosh va kuchli bo'lishga harakat qiladi. Bu esa parlamentda turli fikrlar, manfaatlar muvozanatli ifodaalanishiga, qonunlar sifatli muhokama qilinishiga va samarali qabul qilinishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Markaziy saylov komissiyasi rasmiy sayti
3. Konstitutsiyaviy huquq kitob
4. Yoqubjon Marqayev. Saylov tizimidagi o'zgarish qanday tartib-taomillardan iborat?
5. Huquqiy jamiyatda saylovning ahamiyati : Abduvali Eshonqulov. Zangiota tuman adliya bo'limi boshlig'i
6. Muhammadjonova Gulruh Navro`zbek qizi. Majoritar saylov tizimi va uning umumiy xususiyatlari <https://new.civil.uz/2024/12/31/majoritar-saylov-tizimi-va-uning-umumiy-xususiyatlari/>
7. <https://oz.sputniknews.uz/amp/20230509/saylov-tizimi-majoritar-proporsional-34766854.html>
9. <https://consoc.org.uk/the-constitution-explained/electoral-systems/>
10. file:///C:/Users/Flex%205/Downloads/YOTTJ+0837.pdf

11. Saylov natijalari, KUN.UZ <https://kun.uz/news/2016/12/05/sajlov-natizalari-arafasida-uzbekistondagi-sajlovlar-tarihi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F12%2F05%2Fsajlov-natizalari-arafasida-uzbekistondagi-sajlovlar-tarihi#>
12. <https://parliament.gov.uz/articles/2095> Oliy Majlis Qonunchilik palatasi